O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
OLMALIQ SHAHAR HOKIMI
QARORI

Olmaliq shahri, Amir Temur ko’chasi, 47

2022 - yil 28 - yanvar 23-10-147-Q/22 Olmaliq shahar hokimligi

Muqaddam dafn etilgan marhumlarning jasadlarini yangi hududga ko‘chirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-martdagi “Olmaliq KMK” AJning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2807-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4731-son Qaroriga muvofiq “Yoshlik-I” konini o‘zlashtirish loyihasini amalga oshirish belgilangan bo‘lib, hozirda loyiha ijrosi doirasida kon qazib olish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. “Yoshlik-I” konida foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida konning sharqiy (Vostochniy) qismi hududida shahar aholisining uzoq yillar (50 yil) davomida foydalanuvida bo‘lmagan, dafn qilish ishlari to‘xtatilgan diniy konfessiyali alohida-alohida ikkita eski qabristonlar “Yoshlik-I” konini o‘zlashtirish loyihasini amalga oshirish uchun tanlab olingan er maydoni hududida joylashgan. Yuqorida qayd etilgan vaziyatga tezkor chora ko‘rish va ayniqsa, eski qabristonlarga muqaddam dafn etilgan marhum shaxslarning jasadlariga (saqlanib qolgan tana qismlari) munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatib, ularni yangi hududga ko‘chirish (qayta ko‘mish) bilan bog‘liq ishlarni O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 101-sonli qaroriga, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 59-sonli qarorining VI bo‘limi §7 talablariga rioya etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N

1. “Olmaliq KMK” AJ ning “Yoshlik-I” koni sharqiy (Vostochniy) qismida shahar mintaqa aholisining muqaddam foydalanuvida bo‘lib kelgan, hozirda uzoq yillar davomida dafn etish ishlari to‘xtatilgan diniy konfessiyalik alohida-alohida ikkita eski qabristonlarni zarurat sababidan boshqa hududga ko‘chirish bo‘yicha “Olmaliq KMK” AJ, Olmaliq shahar “Ramazoni sharif” jome masjidi, “Xram Uspeniya Bojey materi” cherkovi, “Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi” va keng jamoatchilikning takliflari ma’qullansin.

2. “Olmaliq KMK” AJning 2021-yil 20-apreldagi 74-259-01-sonli murojaatining ilovasida xaritaning konturlarida qayd etilgan eski qabristonlardagi muqaddam dafn etilgan marhumlarning jasadlari (saqlanib qolgan tana qismlari) er qatlami, qabr usti yodgorliklari, sag‘analar, obodonlashtirish elementlari, yo‘llar, to‘siqlar, bino va inshootlar bilan birgalikda ekologik, sanitariya-gigiyenaga oid va boshqa me’yorlarga zid bo‘lmagan uslubda mintaqa aholisining urf-odatlari, an’ana va udumlariga muvofiq yangi hududga ko‘chirilishi (qayta ko‘mish) ga ruxsat berilsin.

3. “Olmaliq KMK” AJ ning 2021-yil 2-noyabrdagi SSH-008960-sonli murojaati asosida eski qabristonlarni ko‘chirish (qayta ko‘mish) bilan bog‘liq ko‘rsatadigan texnik ko‘magi homiylik yordami tariqasida inobatga olinsin.

4. Muqaddam dafn etilgan marhumlar jasadlarini (saqlanib qolgan tana qismlari) yangi hududga ko‘chirish (qayta ko‘mish) bilan bog‘liq kompleks tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha shahar Ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ishchi guruh (Q.Radjapov) ga quyidagilar yuklatilsin:

- muqaddam dafn etilgan marhumlarning jasadlarini (saqlanib qolgan tana qismlari) yangi hududga ko‘chirish (qayta ko‘mish) bilan bog‘lik tadbirlarini qisqa muddatda uyushqoqlik bilan o‘tkazish va bunda ishchi guruh tarkibidagi barcha yuridik shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uyg‘unligi muvofiqlashtirilsin;

- ko‘chirilayotgan (qayta ko‘milayotgan) qabrlardagi mavjud qabr usti yodgorliklarini ular tegishlicha tavsiflangan buzib tashlash dalolatnomalari tuzilgan holda olinishligini, ko‘chirilgan (qayta ko‘milgan) yangi hududning atrof tevaragi panjaralangan holatda saqlanishligini va bu hududda boshqa yangi dafn etish ishlarining olib borilmasligini ta’minlash;

- “Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b. S.Shermatov bilan birga “Yoshlik-I” koni sharqiy (Vostochniy) qismida joylashgan qabristondagi marhumlarni “Qoralola” qabristoni

hududiga qayta ko‘mish ishlarini amalga oshiruvchi tashkilotni aniqlab shartnoma tuzilish.

6. Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Q.Raximov)ga:

“Yoshlik-I” koni sharqiy (Vostochny) qismida shahar mintaqa aholisining muqaddam foydalanuvida bo‘lib kelgan, hozirda uzoq yillar davomida dafn etish ishlari to‘xtatilgan diniy konfessiyalik alohida-alohida ikkita eski qabristonlarni zarurat sababidan boshqa hududga ko‘chirish uchun “Qoralola” qabristoni hududidan alohida joy ajratilsin.

7. “Olmaliq KMK” AJ (A.Xursanovga)ga qabristonlarni ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar (qayta dafn etish, maxsus texnikalar ajratish) “Olmaliq KMK” AJ tomonidan moliyalashtirilsin.

8. Ushbu qarorda ko‘zda tutilgan tadbirlarning mazmun-moxiyati bilan keng jamoatchilikni tanishtirish uchun qaror matnini “Olmaliq haqiqati”, “Almalikskiy rabochiy”, Rangli metallar uchun” va “Za svetnie metalli” ro‘znomalarida hamda mahalliy televideniyeda e’lon qilish, shuningdek shahar MFYlari orqali hududiy aholiga etkazish ishlari amalga oshirilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari, Ishchi guruh raisi Q.Radjapov zimmasiga yuklatilsin.

Olmaliq Shahar Hokimi **Q.Xamdamov**

Олмалиқ шаҳар ҳокимининг
2022 йил 28 январдаги
23-10-147-Q/22-сон қарорига
1-илова

Muqaddam dafn etilgan marhumlarning jasadlarini (saqlanib kolgan tana qismlarini) yangi hududga ko‘chirish (qayta ko‘mish) bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha shahar Ishchi guruxi

T A R K I B I

Ishchi guruh Raisi

Q.Radjapov	Olmaliq shahar hokimi o‘rinbosari.

Ishchi gurux a’zolari

S.Shermatov	“Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari.
Q.Raximov	Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i.
M.Mamatov	Olmaliq shahar prokurori
J.Manazarov	Olmaliq shahar IIB boshlig‘i
A.Kulaxmedov	Olmaliq shahar FVB boshlig‘i
J.Rahmonov	Olmaliq shahar moliya bo‘limi boshlig‘i
F.Musaev bosh shifokori	Olmaliq shahar sanitariya-epidemilogoiya osoyishtalik markazi
A.Aytmatov raisi	Olmaliq shahar Tabiatni muhofaza qilish mintaqaviy qo‘mitasi
X.Ortiqov	Olmaliq shahar “Ramazoni Sharif” jome masjidi imom xatibi.
P.Bilin (nastoyatel).	“Xram Uspeniya Bojey materi” cherkovi bosh ruhoniysi
X.Kamolov	Olmaliq shahar Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i v.b.
D.Xoliqov	Olmaliq shahar Bosh arxitektori.

Izoh: ilovada ko‘rsatilgan xodimlar boshqa lavozimga o‘tkazilganda ushbu qarorning ijrosi

ularning o‘rniga ta’yinlangan va bevosita shu lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

Diqqat: Eski qabristonlar va ularga tegishli barcha elementlarni kavlab olish

va boshqa hududga ko‘chirish ishlari fotohisobotlar bilan tasdiqlanib,

Ishchi guruh a’zolari dalolatnomasi bilan mustahkamlansin.